

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Olikulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmuddin qizi , asisstant	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhamadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganov , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 Berdiev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi253 Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari258 Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish263 G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish269 Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari284 Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar288 Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari292 Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала297 Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана302 Муяддинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 Тажимуратов Умид Рузматович , Бахриев Иброхим Исометдинович , кандидат медицинских наук, доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili333 Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 Tosheva Ziroat Aliqul qizi	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
Tursun Muxitovich Ahmedov , i. ф. д., prof.; Gavhar Rustamovna Xidirova , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike	359
Urinov Bobur Nasilloevich , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullu Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	



HUDUDLARDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN MEXANIZMNI TAKOMILLASHTIRISH

**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi
Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti**

Annotatsiya: Bugungi dunyo iqtisodiyotida kutilmagan inqirozli jarayonlarni barataraf etish, iqtisodiy faollikka yetaklovchi hamda hududlardagi qator muammolarni barham topishiga imkon beruvchi omil bu investitsiyalardir. Maqolada respublikamiz investitsiya siyosati, uning amaliy tahlili va respublika hududlarida investitsion faolligini oshirishga qaratilgan mexanizmini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati natijalari, amaliy tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: hudud, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, investitsiya siyosati, investitsion faollik, qo'shilgan qiymat, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik.

Abstract: In the current economy, investments are a factor that helps eliminate unexpected crisis processes, intensify economic activity, and solve a number of regional problems. The article describes the investment policy of our republic, its practical analysis and improvement of the mechanism aimed at increasing investment activity in the territory of the republic. In addition, the results and practical analysis of the investment policy implemented in our country are presented.

Key words: territory, direct investment, investment policy, investment activity, added value, investment climate, investment attractiveness.

Аннотация: В современной мировой экономике инвестиции являются фактором, способствующим устранению неожиданных кризисных процессов, активизации экономической активности и решению ряда региональных проблем. В статье описана инвестиционная политика нашей республики, ее практический анализ и совершенствование механизма, направленного на повышение инвестиционной активности на территории республики. Также в этой связи представлены результаты и практический анализ инвестиционной политики, реализуемой в нашей стране.

Ключевые слова: территория, прямые инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционная деятельность, добавленная стоимость, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность.

KIRISH

Dunyoda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2022-yilda 1,3 trln. dollarga kamaydi, ya'ni qariyb 2 foizga kamaydi. Bunday pasayish tendensiyasi rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy oqimlar hajmining pasayishi bilan bog'liq bo'lgan. Ko'pgina hududlar va tarmoqlardagi yangi investitsion loyihalarning o'sishi investitsiya tendensiyasidagi ijobji holatni belgiladi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar rivojlangan mamlakatlardagi o'sish salmog'i sezilsiz bo'lgan [1].

2022-yilda dunyo iqtisodiyotida ko'pgina mamlakatlarning faol investitsiya siyosatinining olib borilishi natijasida iqtisodiy inqirozning oldi olingan. Investitsiya siyosatidagi iqtisodiy faollikka qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar natijasida dunyo mamlakatlari pandemiya davridan oldingi holatga qaytdi.

O'zbekistonda keyingi yillarda hududlar sanoati rivojlanishiga, bu sohada texnologik va innovatsion siyosatni amalga oshirishga, xarajatlarni kamaytirish maqsadida yuqori texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, hududlarda tabiiy resurslar yetishmasligi hamda muntazam ravishda ular narxining oshib borishi, sanoat ishlab chiqarishida iste'mol, ijtimoiy va ekologik standartlarning o'zgarishi va murakkablashib borishi, raqobatning kuchayishi, sanoat ishlab chiqarishi samarasining doimiy ravishda oshib borish zaruriyati, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning sifat va texnologik ko'rsatkichlariga talabning qat'iyashuvi tufayli ilmiy texnik taraqqiyotning mahsuli sifatida mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish orqali mahsulot raqobatbardoshligini oshirish zaruriyatga aylanmoqda.

Zero, hozirgi taraqqiyot bosqichida hududlarda investitsiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati beqiyos va aynan shu holat mazkur muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Mamlakatda shakllangan investitsiya siyosatini amalga oshirish, hududiy investitsiya strategiyasini ishlab chiqish, uni amalga oshirishni



boshqarish, korxonalarning investitsiya kiritish uchun istiqbolligini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, hududiy investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish borasidagi vazifalarini takomillashtirish zarurati ushbu mavzuning maqsadi va tadqiqot vazifalarini belgilab berdi.

MATERIAL VA METOD

G'arb olimi K. Makkonnell fikricha^[2] investitsiya ishlab chiqarish va jamg'arish vositalari (asbob-uskunalar, mashina, zavod-fabrika, transport vositalari, tovar va xizmatlarni iste'molchiga yetkazib berish tizimi) jarayonidir.

Investitsiyalarning tub mohiyatini^[3] "Investitsiyalar-bu ishlab chiqarish va ishlab chiqarish vositalarini to'plash va moddiy zaxiralarni ko'paytirish xarajatlaridir" deb berilgan ta'rif ham nazariy jihatdan ifodalab beradi.

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan akademik S. S. G'ulomovning fikricha^[4] "Investitsiya deb har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarini birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror bir investitsion obyektga sarflashiga aytildi". Bu tushuncha D. G'ozibekov^[5] bergan ta'rifga ko'ra, investitsiyalar noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bo'limgan bugungi qiymatini almashtirishdan iborat. Buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularning ongli ravishda aniq va noaniq bo'lgan qaltisliklar bilan bog'lanishini keltiradi.

A. Sobirovning^[6] e'tirof etishicha investitsiyalar – bu daromad olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirdorlik va faoliyatning boshqa turlari obyektlariga investorlar tomonidan qo'yiladigan mulk va intellektual qadriyatlarning barcha turlarini ifodalovchi mablag'larning kiritilishidir.

Mamlakat hududlari investitsiyaviy faoliyati to'g'risida I. A. Blankning fikricha^[7], iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiya jozibadorligini baholashning uch asosiy elementi mavjud: iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining istiqbollilik darajasi, korxonalarning o'rtacha rentabellik darajasi, hududiy investitsiya tavakkalchiliklarini baholash. Mamlakat hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini baholashning asosiy elementlariga esa: hududning umumiy iqtisodiy rivojlanishi, investitsiya infratuzilmasi, bozor munosabatlari va tijorat infratuzilmasi darajasi, hududda investitsiya faoliyatini yuritish xavfsizligi holati hamda hudud demografik tavsifi kiritilgan.

Tadqiqot ishida keltirilgan nazariy yondashuvlar, ularning asosini tashkil etadigan belgilar investitsiyalarni boshqarishda hududiy investitsion faoliyatlarni amalga oshirishda va tizimli yondashuvni ko'zlagan holda belgilangan vazifalar majmuuni hal etish imkoniyatini beradi.

NATIJALAR

Ma'lumki, investitsiyalar jamiyatning real kapitalini ko'paytirishga yo'naltirish va iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Tarmoqlar iqtisodiyotiga yangi texnologiyalar va investitsiyalar kiritish keskin raqobatchilik kurashida (ichki va tashqi bozorda ham) aniqroq moslashib olish imkoniga ega bo'lishga yordam beradi.

Investitsiyalar eng muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, makro va mikro darajada, birinchi navbatda, oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, tarkibiy o'zgarishlar, foydani maksimallashtirish va shu asosda ko'plab ijtimoiy muammolarni hal etish uchun muhim rol o'ynaydi. Investitsiyalarni jaib qilish manbalari bo'lib respublika va mahalliy budget ajratmalari, xorijiy investitsiyalar shaxsiy moliyaviy mablag'lari, turli shakldagi qarz mablag'lari xizmat qilishi mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, investitsiyalar hududlarning doimiy rivojlanishini ta'minlaydi, quyidagi vazifalarni hal etishda yordam beradi: moliyaviy resurslarni jamlash hisobiga shaxsiy tadbirdorlik faoliyatini kengaytirish, yangi korxonalarni sotib olish, biznesning yangi yo'nalishlarini egallash. Hududlarda investitsiyalar samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni quyidagicha guruhladik (1-rasm).



1-rasm: Hududlarda investitsiyalar samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar^[8]



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida investitsion faoliyning o'zgarishini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Respublikamizda investitsion jarayonlardagi o'zgarishlar, asosan, YalMning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalariga investitsiyalarni jalg etishga ustuvorlik berilishi bilan bog'liqdir.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasida 2015–2022-yillarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, ming so'm.

Hududlar	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
O'zbekiston Respublikasi	1431,7	1608,6	2227,8	3769,6	5834,6	6140,3	6861,0	7468,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3388,2	2094,0	1542,2	3641,1	4644,4	3710,0	4189,2	5225,5
Andijon	678,4	745,3	999,6	1550,3	2406,0	3047,2	3470,1	4361,1
Buxoro	2264,0	3237,6	6254,2	5112,4	5429,3	6295,0	10462,9	10855,5
Jizzax	1033,1	1125,1	1361,9	2693,9	5778,9	8984,7	6470,7	7107,9
Qashqadaryo	1969,9	2389,3	3583,4	5193,4	7534,6	6214,7	5148,2	4647,7
Navoiy	1965,1	3168,1	4185,4	10892,1	17855,2	15604,2	14672,4	17189,8
Namangan	863,8	1074,8	1340,3	2992,5	4344,1	4229,2	4477,8	4984,4
Samarqand	912,0	1001,6	1189,4	1878,3	2674,9	3746,0	3920,7	4642,5
Surxondaryo	773,0	879,1	1427,1	2848,3	4552,8	3792,2	4438,7	4169,4
Sirdaryo	1382,2	1660,3	2011,1	3280,2	7002,9	8425,4	9257,1	13919,1
Toshkent	1595,0	1507,5	2087,2	3898,4	6970,0	7169,0	9644,5	12056,8
Farg'ona	731,6	747,8	822,4	1516,8	2336,2	2916,0	3272,3	3917,2
Xorazm	884,7	885,8	1215,1	1655,6	2718,4	2868,2	4344,3	4517,9
Toshkent sh.	2877,4	3848,1	5552,7	10627,8	16710,5	19065,6	20619,8	19539,4

1-jadvalda O'zbekiston Respublikasida 2015–2022-yillarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'zgarish tendensiyasi keltirilgan. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston Respublikasida 2015-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar 1431,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 7468,6 ming so'mni tashkil etgan, ya'ni o'sib boruvchi tendensiya kuzatilgan. Hududlar kesimida 2015–2022-yillar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulush salmog'i 2015–2020-yillarda Toshkent shahri va Navoiy viloyatiga to'g'ri kelgan. 2020–2022-yillarda esa eng yuqori ulush salmog'i Toshkent shahri, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent, Buxoro viloyatlariga to'g'ri kelgan. Mazkur yillarda eng past ko'rsatkich salmog'i Farg'ona, Surxondaryo, Xorazm, Andijon viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Mamlakatimizda investitsiya siyosati ishlab chiqilgan bo'lib, unda iqtisodiyotga mablag'larni kiritishi uchun qulay sharoitlarni yaratish orqali yuqori investitsiya salohiyatini amalga oshirish belgilangan. Shu o'rinda mazkur maqsadning amalga oshishida hududning investitsion jozibadorligini oshirish, investitsion muhitga ta'sir etuvchi omillarni yaxshilash talab etiladi. Har bir hududning o'z mahalliy ichki siyosatini ishlab chiqish asosida hududlar tomonidan investorlarni jalg qilish uchun maksimal darajada jozibador shart-sharoitni yaratishga e'tibor qaratish lozim.

MUNOZARA

Hududga kapital oqimini yo'naltirish borasida mahalliy yoki xorijiy investitsiyalar uchun jozibador shart-sharoitni yaratish umum davlat darajasiga nisbatan hudud darajasida osonroq hal bo'ladi. Investitsion salohiyatni iqtisodiy-ijtimoiy, geografik farqlarni o'z ichiga oluvchi omillar nuqtayi nazardan hududlarga tegishli o'ziga xos guruhlarga bo'lish mumkin. Odatta, hududlarning absolyut ustunliklarini aholi va mehnat resurslarining soni, demografik xususiyatlari, ishlab chiqarish, qayta ishlash, urbanizatsiya darajasi, transport yo'llarining geografik joylashishi va boshqa bir qator o'ziga xosliklar bilan baholanadi.

Har bir tanlangan hududlarning ko'lami, tashkiliy-qonuniy tizimini va budgeti, hudud imkoniyatlarni inobatga olgan holda hududlarga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan investitsiya siyosati bo'yicha masalalarni kompleks hal qilish, bor imkoniyatlarni ma'lum bir yo'nalishga ajratish mumkin:

- hududni strategik rivojlantirishni ifodalovchi, hududiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish kerak. Ushbu dastur mahalliy va xorij ishbilarmonlar o'rtasida aloqalarni jonlantirish, hudud o'ziga xosligini



- ko'rsatishga har qanday sharoitda ham iqtisodiy sherikchilikka tayyor ekanligini namoyish qila olishni ifodalashi kerak;
- raqamli iqtisodiyot sharoitida ilm-fan taraqqiyotini qo'llash asosida kadrlar salohiyatlaridan unumli foy-dalanish maqsadida tadbirkorlik muhitiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
 - hududlarda ichki investitsiya imkoniyatlarini rivojlantirish va korxonalariga investitsiyalarni jaib qilish jarayonida jadal rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;
 - hududlarning iqtisodiy va investitsiya salohiyatlarini oshirishga yordam beruvchi ishlab chiqarish infrastrukturasi obyektlarini yangilanib borishiga davlatning rag'batlantiruvchi siyosatini qo'llab-quvvatlash;
 - hudud iqtisodiyoti samaradorligini oshirish: har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari asosida rivojlanishidagi tafovutlarni yo'qotish.

Hududlarga investitsiyalar yo'naltirishda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash lozim. Erkin iqtisodiy zona taraqqiyoti uchun zarur transport kommunikatsiyalari va infratuzulma rivojdanishida tashkilly mexanizmlarni yanada takomillashtirish talab qilinadi.

Rivojlangan chet davlatlar tajribasini o'rganish davomida shu narsa aniqlandiki, investitsiyalarga bo'lgan talabning darajasi va dinamikasi bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan aniqlanib, ulardan eng muhimlar quyidagilar: maqsadli investitsiyalar manbalaridan biri hisoblangan sof foya va amortizatsiya ajratmalarining mamlakatda yaratilgan yalpi milliy mahsulotdagi ulushi, amortizatsiya ajratiladigan aktivlar yoki aksionerlik kapitaliga to'g'ri keluvchi hisoblangan foya darajasi me'yorlari va boshqalar.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari xususan, qishloq xo'jaligining ham intensiv rivojlanib borishi hamda iqtisodiy jarayonlarning barcha ishtirokchilari faoliyatida innovatsion-investitsion faoliyatning jadallashuvi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnda ta'kidlash o'rinlikni, O'zbekiston hududlari iqtisodiyotiga jaib qilinayotgan investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha tarkibini muvofiqlashtirishda quyidagi yo'nalishlardagi islohotlarni faol olib borishni taqozo etadi:

- har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatidan va iqtisodiy tarixiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish salohiyati, ustunlik tomonlari va o'sish zaxiralarini hisobga olgan holda uzoq muddatli hududiy investitsion ustuvor strategiyalarini ishlab chiqish zarur;
- hududlarga investitsiyalarni jaib qilishni rag'batlantirish va investorlarga imtiyozlar berishni shakllantirishda investitsiyalarni qayta ishlash tarmoqlari, axborot va kommunikatsiya sohalari, kimyo sohasidagi mahsulotlar ishlab chiqarish, elektronika tarmoqlari kabi zamonaviy hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega sohalarga yo'naltirish lozim. Bu kelajakda respublika hududlarida iqtisodiyotga to'siq bo'lувчи muammolarni barham topish imkonini beradi;
- davlat kafolati ostida bo'luman bo'lg'idan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, yangi korxonalar uchun kadrlar tayyorlashni isloh qilish va hudud infratuzilmasini rivojlantirish zarur;
- yuqorida tahlil natijalariga suyanadigan bo'lsak, hududlarga jaib etilayotgan investitsiyalar notekisligini ko'rish mumkin. Shunga ko'ra, jaib etilayotgan xorij va mahalliy investitsiyalarni hududlar kesimida muvofiqlashtirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiq deb o'yaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://unctad.org>.
2. Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. – М.: 1992. – С. 120-121.
3. Кэмбелл Р., Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В 2-х томах, Таллин, 1993. с. 399-400.
4. Menejment va biznes asoslari. Darslik. S. S. G'ulomovning umumiyl tahriri ostida. –T.: Mehnat, 1997. – 245 b.
5. G'ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: "Moliya", 2003.
6. Sobirov A. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jaib etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. I. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2009. – 12-b.
7. Menejment va biznes asoslari(darslik). S. S. G'ulomovning umumiyl tahriri ostida. . –T.: Mehnat, 1997. – 245 b.
8. G'ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent, "Moliya", 2003.
9. Sobirov A. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jaib etishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. I. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: TDIU. 2009. 12 b.
10. Бланк И. А. Управление инвестициями предприятий. – К.: Ника-Центр, Эльга. 2003. – С. 102.
11. Tahliliy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.